

2-MAY

2025



Toshkent tibbiyot
akademiyasi



O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirligi

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIKADA FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

III Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed

CYBERLENINKA

Google
scholar



Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirligi

www.ssv.uz

CONTENTS | MUNDARIJA | СОДЕРЖАНИЕ

38. Tanzila Zoir qizi Sulaymonova XALQ OG'ZAKI IJODI - MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASOSI	245
39. Seviya Ruslanovna Yunusova TEACHING FOOD VOCABULARY TO (YOUNG LEARNERS) THROUGH INTERACTIVE ACTIVITIES	251
40. Seviya Ruslanovna Yunusova АДАПТАЦИЯ СУЩЕСТВУЮЩИХ МЕТОДИК ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ К НОВЫМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ РЕАЛИЯМ: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ДИСТАНЦИОННОГО И СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ	256
41. Seviya Ruslanovna Yunusova THEORETICAL HORIZONS OF MODERN FOREIGN LINGUISTICS: FROM STRUCTURALISM TO COGNITIVISM AND FURTHER	264
42. Zulfiya Abubakirovna Dехkamбаева ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ	269
43. Malohat Olimovna Komilova ИНТЕГРАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И МЕДИЦИНСКИХ ПОДХОДОВ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ FLIPPED CLASSROOM СМЕШАННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ.	275
44. Surayo Shahabovna Rustamova SOME FEATURES OF TEACHING THE LATIN LANGUAGE TO STUDENTS OF DOCTORS	282
45. Dilnaza Ravshanbekovna Tulyaganova ВНЕДРЕНИЯ НОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДИК В ПРОГРАММЫ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ	287
46. Dilorom Anvarovna Hashimova ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ	293
47. Gulnora Nematovna Egamberdieva ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ.	301
48. Fazilat Fayzulla qizi Abdiyeva MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORLARINING BOSHQARUV FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O'RNI	309
49. Z.Eshonqulova O'SMIRLIK DAVRIDAGI PSIXOLOGIK MUAMMOLAR	316
50. Mag'firat Mirodil qizi Abdumutalibova OVQATLANISH XULQ-ATVORINING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI	321
51. Matluba Lutfullayevna Aripova THE IMPACT OF ENVIRONMENT ON PERSONAL DEVELOPMENT	326
52. Shamsiya Djabbarovna Bekova OILA MUHITINING BOLALARDA MULOQOT QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	332
53. Maxsuda Ataxanovna Boboyeva GENDER STEREOTIPLARI VA ULARNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI	336
54. Madixa Ixtiyor qizi Gaffarova OILANING MAKTABDAGI BULLINGGA TA'SIRI	342
55. Gafurova S. Sh. KOGNITIV BIXEVIORAL PSIXOTERAPIYANING ME'DA ICHAK TRAKTI FUNKSIONAL KASALLIKLARIDA QO'LLANILISHI	352
56. Shaxnoza Gapparovna Ibragimova, Shaxnoza Shavkatovna Xamraeva O'SMIRLIK DAVRIDA QADRIYATGA YO'NALGANLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	357

13. Мелибаева, Р. Н. (2024). ТИББИЙ ТАЪЛИМДА ПСИХОЛОГИК ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШ МУАММОЛАРИ. Academic research in educational sciences, (1), 163-169.
14. Abdivalieva, A. N. (2024). PEDAGOGlarda KASBIY KUYISHNI Keltirib Chiqaruvchi Psixologik Omillarni O'rganilganligi.
15. Karimovna, N. Y. (2022). Yoshlarda Internetga Tobelik Muammolari. Ta'lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali, 2(12), 96-99.
16. Karimovna, N. Y. (2024). OILADA O'SMIR BOLALAR IJODIY TAFAKKURI SHAKLLANISHINING GENDER XUSUSIYATLARI. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(20), 8-11.
17. Karimovna, N. Y. (2024). O'SMIRLARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA OILANING ROLI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 5(42), 227-231.
18. Axmedova, M. T., & Narmetova, Y. K. (2023). BOLALARDA OLIY NERV FAOLIYATI TIPLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI TARBIYALASH. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 707-712.
19. Исмаилова, М., & Нарметова, Ю. (2024). ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Innovations in Science and Technologies, 1(1), 169-179.
20. Сайфутдинов, Ш. С., & Нарметова, Ю. К. (2022). МАКТАБГАЧА ЁШ ФЕНОМЕНИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(2), 250-253.

"KOGNITIV BIXEVIORAL PSIXOTERAPIYANING ME'DA ICHAK TRAKTI FUNKSIONAL KASALLIKLARIDA QO'LLANILISHI".

Gafurova S. Sh.

Toshkent tibbiyot akademiyasi. Toshkent.

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada ta'sirlangan ichak sindromida kuzatiladigan xavotir-fobik buzilishlarni aniqlash va tibbiy psixologik yordamni takomillashtirish, kognitiv psixoterapiya usullaridan foydalangan holda amaliyotga tadbiriq qilish va bemor ruhiyatidagi buzilishlarni davolash chora tadbirlari natijalari tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'sirlangan ichak sindromi, HADS shkalasi, kognitiv psixoterapiya, psixosomatik kasallik, psixodiagnostika.

Dolzarbli: Me'da -ichak traktining funktsional kasalliklari zamonaviy tibbiyotning eng jiddiy va to'liq hal etilmagan muammolaridan biri bo'lib qolmoqda [10,9,1,7]. Kasallik ko'rsatkichlari bo'yicha ular umumiy terapevtik va gastroenterologik amaliyotda yetakchi o'rinni egallaydi. Jahon Gastroenterologiya Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, oshqozon-ichak trakti kasalliklari kattalar orasida Yevropa aholisining 30 foizida uchraydi va qorin og'rig'i uning asosiy sababidir. Ushbu holatlarning taxminan 20-50% ta'sirlangan ichak sindromi namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Dunyoda ta'sirlangan ichak sindromi tarqalishi umumiy aholining o'rtacha 10-20% ni tashkil qiladi [10, 9, 7].

Oshqozon-ichak trakti kasalliklarining ijtimoiy ahamiyati ularning yoshlar orasida keng tarqalganligi bilan izohlanadi [1]. Asoratlarning og'irligi va chastotasi bo'yicha ta'sirlangan ichak sindromi boshqa organik patologiyalardan sezilarli darajada past, ammo bunday bemorlarning hayot sifati keskin kamayadi [3, 4, 10]. Ta'sirlangan ichak sindromi diagnostikasi gastroenterologiyadagi eng dolzarb diagnostikalardan biridir, chunki u shunga o'xshash belgilarga ega bo'lgan kasalliklarni istisno qilishga asoslangan va keng ko'lamli laboratoriya va instrumental tadqiqot usullaridan foydalanishni talab qiladi [9].

Turli mualliflarning fikriga ko'ra, ta'sirlangan ichak sindromi bilan og'rigan bemorlarning 54 dan 100 foizigacha ularning shaxsiyati va xarakteridagi o'zgarishlar namoyon bo'ladi [11,5]. Ta'sirlangan ichak sindromida xavotir va depressiv buzilishlar darajasi juda yuqori, chunki eng universal reaksiyalar bilan tashqi yoki ichki muammolarda ruhiy sohaning ziddiyatlari bilan bog'liq [2].

Hozirgi vaqtda ta'sirlangan ichak sindromi asab tizimi tomonidan ichak funktsiyalarining disregulyatsiyasi bilan bog'liq biopsixosotsiyal patologiya sifatida qaraladi, shuning uchun kasallikning patogenezi o'rganishda psixo-emotsional va vegetativ jihatlariga katta ahamiyat beriladi [6].

Maqsad: Ichak ta'sirlanish sindromida xavotir-fobik buzilishlarni aniqlash va ularda tibbiy psixologik yordamni takomillashtirish.

Material va metodlar: Ushbu tadqiqot ishlari 2022-2023 yillar mobaynida Toshkent Tibbiyot Akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi, gastroenterologiya bo'limiga murojaat qilib kelgan 70 nafar TIS bilan og'riqan bemorlarda olib borildi. Bemorlar yosh oralig'i 25-55 yosh. Bemorlarning o'rtacha yoshi $29 \pm 4,5$. Tashxis bemorlar klinikaga statsionar davolanish uchun kelganda shikoyati, anamnezi, obektiv va paraklinik malumotlar asosida qo'yildi. Ruxiy buzilishlar Ibodullaev Z.R. tomonidan tavsiya etilgan tibbiy psixologik anketa orqali tekshirildi va ruxiy psixologik testlar orqali baxolandi.

Bemorlarning klinik psixologik tekshiruvlari 1-3 va 27-30 kunlarda o'tkazildi. Tashxisni tekshirish uchun quyidagi tekshiruvlar o'tkazildi: terapevtik tekshiruvlar bilan bir qatorda Z.R.Ibodullaev tomonidan 2008 yilda ishlab chiqilgan tibbiy-psixologik so'rovnomadan, xavotir-fobik buzilishlarni aniqlash uchun HADS so'rovnomasi xavotirni aniqlaydigan shkalasidan foydalanildi. Psixokorreksiya usullari orasida psixologik suhbat, kognitiv terapiya va avtotrening qo'llanilgan. Suhbat har bir bemorga o'rtacha 45-60 daqiqa, 1 OY davomida har 4-5 kunda bir marta, bemorning ahvolini hisobga olgan holda 4-5 marta olib borildi. Suhbatlarning ikkitasi statsionar sharoitda, qolganlari esa ambulatoriya sharoitida o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari: olingan natijalariga ko'ra, xavotirli fobik buzilishlar insonlarning mehnatga layoqatli yoshdagi davrida mehnat qobiliyatining pasayishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri ekanligi ko'rsatildi. Nevrotik buzilishlarda ruhiyatdagi patologik holatlar kasallikning kechishiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. O'tkazilgan tadqiqot mobaynida har ikkala guruh bemorlarini davolanishdan avval ularning hayot anamneziga, kasallikning klinik simptomlarini qay darajada ifodalanganligiga, fizikal labarator tekshiruvlar va bemorlarning yondosh kasalliklariga e'tibor berildi.

Ma'lumki xavotirli-fobik sindromning asosi hisoblangan psixoemotsional buzilishlar ushbu kasallikni kechishiga to'g'ridan –to'g'ri ta'sir qiladi. Psixoemotsional buzilishlar natijasida kelib chiqadigan bemorlarning ruhiyatidagi o'zgarishlar esa bemorlar ijtimoiy hayotiga, mehnat faoliyatiga o'zini salmoqli ta'sirini ko'rsatib dezadaptatsiyaga olib keladi. Shu sababdan tadqiqot ishimizda avvalo xavotirli-fobik sindromning subyektiv belgilarini ko'rib chiqdik.




Diagramma-1. Tekshirilgan asosiy guruxlarida psixoterapiyadan oldingi va keyingi natijalari (HADS shkalasi –xavotir ko'rsatkichlari)

Ushbu diagrammadan ko'rinib turibdiki asosiy gurux davodan oldin xavotir yo'q bemorlar soni 4 ta, subklinik xavotir 22 ta, klinik xavotir 9 ta edi davodan o'tkazilga basis terapiya, psixoterapiya va psixofarmakoterapiyadan so'ng esa quyidagicha o'zgardi: xavotir yo'q 24 ta, subklinik xavotir 8 va klinik xavotir esa 3 ta ga samarali kamaydi.




Diagramma-2. Tekshirilgan nazorat guruxlarida davodan oldingi va keyingi natijalari (HADS shkalasi –xavotir ko'rsatkichlari)

Ushbu diagrammadan ko'rinib turibdiki nazorat gurux davodan oldin xavotir yo'q bemorlar soni 3 ta, subklinik xavotir 24 ta, klinik xavotir 8 ta edi davodan o'tkazilga basis terapiya va psixofarmakoterapiyadan so'ng esa quyidagicha o'zgardi: xavotir yo'q 11 ta, subklinik xavotir 18 va klinik xavotir esa 6 ta ga yaxshilandi.

Xulosa. Ta'sirlangan ichak sindromi bilan og'rigan bemorlarda psixoemotsional buzilishlardan biri bo'lgan xavotir-fobik buzilishlar ekanligi HADS shkalasi orqali aniqlandi. Bu holat kasallikning yanada og'ir kechishiga sabab bo'ladi va psixosomatik asosga ega. Ta'sirlangan ichak sindromida turli darajadagi xavotir-fobik buzilishlar yaqqol ifodalandi. Bemordagi ushbu buzilishlar o'tkizilgan psixoterapiya usullari orqali samarali bartaraf qilish mumkinligi olingan natijalar orqali isbotlandi. Olingan

natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'sirlangan ichak sindromi bilan og'riqan bemorlarga bazis terapiya bilan bir qatorda kognitiv psixoterapiya usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq, bu esa o'z o'rnida bemorlarning psixosotsial holatini yaxshilanishiga va hayot sifatini oshirishiga olib keladi.

REFERENCES

1. Gafurova S., Yusuphodjaeva S. DIFFERENTIAL ANALYSIS OF NEUROTIC DISORDERS IN IRRITABLE BOWEL SYNDROME AND IMPROVEMENT OF MEDICAL PSYCHOLOGICAL SUPPORT IN THEM //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. D2. – С. 177-181.
2. Юсупходжаева, С., & Гафурова, С. III. (2022). ЗНАЧЕНИЕ КОГНИТИВНО-БИХЕВИОРАЛЬНОЙ ПСИХОТЕРАПИИ ПРИ ТРЕВОЖНО-ДЕПРЕССИВНЫХ РАССТРОЙСТВАХ.
3. Sh G. S. Ichak ta'sirlanish sindromidagi psixosotsial buzilishlar va unda psixoterapevtik yordam ko'rsatish //SOLUTIONS SOLUTIONS. – 2020.
4. Yusuphodjaeva ST, Gafurova SS. Methods Of cognitivebehavioral psychotherapy in the treatment of rheumatoid arthritis. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023; 3: 701–706.
5. Yusuphodjaeva S. T., Gafurova S. S. Methods Of Cognitive-Behavioral Psychotherapy In The Treatment Of Rheumatoid Arthritis //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 1-2. – С. 701-706.
6. Gafurova S. S., Yusuphadjaeva S. T. ANXIETY-PHOBIC DISORDERS IN IRRITABLE BOWEL SYNDROME AND THE EFFECTIVENESS OF PSYCHOTHERAPY AND PSYCHOPHARMACOTHERAPY //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – T. 3. – №. 1. – С. 110-115.
7. Мелибаева, Р. Н. (2012). Формирование самостоятельного и творческого мышления студентов в процессе поиска решения проблемной ситуации. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (12), 349-352.
8. Мелибаева, Р. Н. (2023). СОМАТИК КЛИНИКАДА ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 719-725.
9. Melibaeva Ruzahon Nasirovna. (2022). THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL DIAGNOSIS IN CLINICAL PRACTICE. Conferencea, 4–6.

10. Meliboyeva, R. N. (2016). ON STUDYING OF THE CATEGORY OF THINKING IN PSYCHOLOGY. *European Journal of Psychological Research* Vol, 3(1).
11. Абдуллаев, А., & Аскарова, Н. А. (2025). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В РАБОТЕ ХИРУРГА: ВЛИЯНИЕ НА ПРОФЕССИОНАЛЬНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ПАЦИЕНТА. *Academic research in educational sciences, (Conference)*, 113-117.
12. Akhmedova M., Narmetova Y., Alisherov B. Categories of person in conflict and methods of conflict resolution in the occurrence of conflicts between medical personnel //Jargonismis in the speech of modern youth Ahmedova MH Tashkent State Pedagogical University. – 2021.
13. Karimovna N. Y. Yoshlarda Internetga Tobelik Muammolari //Ta'Lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 12. – С. 96-99.
14. Melibayeva, R. N., Khashimova, M. K., Narmetova Yu, K., Komilova, M. O., & Bekmirov, T. R. (2020). Psychological mechanisms of development students' creative thinking. *International journal of scientific & technology research*, 9(03).
15. Норметова Ю. Изучение социально-психологических подходов к проблемам здоровья и болезни //От истоков к современности. – 2015. – С. 304-306.